

IBORALARNING KOMMUNIKATIV VAZIFALARI

Xusenova Sevinch Murodjonovna

Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi

1-kurs talabasi

E-mail: s.m.xusenova@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada asosan ingliz va o'zbek tillaridagi iboralarning berilishi va ularning tarjimada berilishi atroflicha ko'rib chiqilgan. Iboralarning kognitiv ma'no ifodalashi misollar orqali yorqin namoyon etilgan.

Аннотация. В статье подробно рассматриваются в основном английские и узбекские фразы и их перевод. Выразительность познавательного значения выражений ярко выражена на примерах.

Abstract. The article discusses in detail mainly English and Uzbek phrases and their translation. The expressiveness of the cognitive meaning of expressions is clearly expressed in examples.

Kalit so'zlar: fraza, frazeologiya, okkazion, nominativ funksiya, iboraviy birikma

Ключевые слова: фраза, фразеология, окказионы, номинативная функция, словосочетание

Key words: phrase, phraseology, occasion, nominative function, word combination

Frazeologik birliklar tilimizni ta'sirchan, mazmunli hamda jonli bo'lishini ta'minlovchi birliklar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday birliklarni nutqda qo'llanilishi so'zlovchining intellektual salohiyatini belgilab bergani bois, ularni nutq vaziyatida, qolaversa badiiy talqinda bajaradigan funksiyalarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Iboraviy birliklar bir necha xil. Iboralarda kommunikativlik darajasi turli xil bo'lishi mumkin, kommunikativlik turiga ko'ra 3 xil iboraviy birliklar mavjudligi taklif

etilgan. 1) Tarkibidagi bironta ham so'zning asl ma'nosi saqlanmagan iboralar (phraseological fusions). Bu turdagi iboralarda so'z ma'nolarining bir biriga bog'liqligi eng yuqori darajani kasb etadi. Masalan: *to kick the bucket = to die – jon taslim etmoq, bakers dozen - baxtsiz raqam, spick and span, fishy story - saf-sata*. 2) To'liq ko'chma ma'noli so'zlar birikmasi (phraseological units), bunday turdagi birikmalarda metafora juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu turdagi iboralarda tarkibdagi bironta so'z o'z ma'nosini qisman bo'lsada saqlab qolgan, yoki so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan bo'ladi. Masalan: *to show ones teeth = to smile, - iljaymoq, tabassum qilmoq, to know the way the wind blows – shamolning qaysi tarafdan esayotganligini bilmoq, gapning qaysi tarafga qarab borayotganligini bilmoq, to skate on thin ice = to be in danger – xavf ostida bo'lmoq*. 3) Iboraviy birikma (Phraseological combinations) – tarkibidagi bir so'zning o'z lug'aviy ma'nosini saqlab qolgan, ikkinchisi esa ko'chma ma'noda ishlatiladigan birikmalar. Masalan: *to make money, - pul ishlab topmoq, to take exams – imtiho topshirmoq*.

Har qanday frazeologik birlik uchun xos bo'lgan muqim funksiyalar mavjud bo'lib, ular nominativlik, kommunikativlik hamda kognitivlik funksiyalaridir. Nominativ funksiya frazeologik birliklarning moddiy dunyodagi ma'lum bir obyektlar, harakat yoki holatlarni nomlash yoki ifodalab kelishida namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklarning kommunikativlik funksiyasi esa nutq jarayonida ma'lum bir fikr ifodalash, ma'lum bir ma'lumotni tinglovchiga yetkazish uchun foydalaniladi va bu ularning kommunikativ birlik ekanligini tasdiqlaydi.

Nominativ funksiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan funksiya bu kognitiv funksiya hisoblanadi. Chunki borliqdagi narsa-predmetlarni jamiyatda tushunganimizdek aks ettiramiz. Ular ongimizda o'z inikosini topadi. Frazeologik birliklar ham xuddi til kabi ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Chunki frazeologik birliklar ma'lum bir jamiyatda, ma'lum bir shaxslar tomonidan kashf etiladi va mana shu jamiyatda kommunikativ vosita sifatida foydalaniladi.

Frazeologik birliklar uchun xos bo'lgan o'zgaruvchan funksiyalarga semantik funksiya, pragmatik funksiya, stilistik funksiya kabilar kiritiladi.

Stilistik funksiya aksariyat so'zlashuv frazeologik birliklari uchun xos bo'lib, ular ma'lum bir voqea-hodisa yoki narsa-predmet haqida xabar yetkazish bilan bir qatorda unga qo'shimcha emotsional –ekspressiv bo'yoq yuklaydi.

Shuningdek, rus tilshunosi Gavrin talqiniga binoan frazeologik birliklar yana nutq momentida, nutqni ixchamlashtirish, obrazli ifodalash, baholashbir qator muhim funksiyalar bajaradi.

Frazeologik birliklar nutq momentida ham badiiy talqinda qo'llanilganda ham ikki xil uzual va okkazional holatda qo'llanilishi mumkin. Ya'ni frazeologik birliklarning uzual ma'nosi uning lug'atda aks etgan ma'nosi bo'lsa, okkazional ya'ni matniy ma'nosi iboraning ma'lum bir nutq vaziyatida yoki matnda anglatib kelayotgan ma'nosi hisoblanadi. Frazeologik birliklarni okkazional xususiyatlarini birinchilardan bo'lib, rus tilshunosi A.V.Kunin tadqiq etgan.Uning ta'limotiga binoan frazeologik birliklar to'rt xil usulda qo'llanilishi mumkin bo'lib, birinchi va ikkinchi darajali uzual ifodalanish frazeologik birliklarning lug'aviy ma'nosiga asoslansa, birinchi darajali okkazional ifodalanish frazeologik birlik ma'nosidagi turli xil o'zgarishlarni taqqozo etadi. Ikkinchi darajali okkazional ifodalanish bo'lsa frazeologik birlik tarkibini umuman o'zgartirib yuboradi. Bunday ifodalashnitilshunos Nachischione “portlash” deb ham atagan. frazeologik birlik tarkibidagi okkazional o'zgarishlarni tahlil qilish zamonaviy ingliz frazeologiyasidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki aynan frazeologik birliklarning okkazional qo'llanilishini tahlil qilish yordamida matndagi ichki ma'no yoritilib, ekspressiv–stilistik xususiyatlar aks ettirilishi mumkin.¹

1. Birinchi darajali uzual ifodalanish. Bunda frazeologik birlik o'zining lug'aviy, stilistik bo'yog'ini, an'anaviy komponent tarkibini saqlagan holda matn tarkibida ifodalanadi.

Masalan:”a fat lot” so'zlashuv kinoyaviy frazeması “yetib ortadi”, oshib toshib yotibdi” degan ma'nolarni anglatadi va quyida aynan shu ma'noda qo'llanilgan:

¹Qilichev E. “Sinonimik iboralarning uslubiy xususiyatlari”. – SamDU to'plami. 2006.

"**A fat lot** you must have loved me!" she exclaimed (Maugham W.S. The Razors Edge.p.125).

"**go to one's long rest**" iborasi bo 'lsa adabiy birlik bo'lib "boqiy dunyoga ravona bo'lmoq", "hayotdan ko'z yummoq" degan ma'noni anglatadi va u keyingi misolimizda aynan shu ma'noda aks ettirilgan.

One more old Forsyte **going to his long rest**. Wonderful how he had held out (Galthworthy J. Indian Summer of a Forsyte, p.201)

2. Ikkinchi darajali uzual ifodalanish. Bunday hollarda frazema o'zining uslubiy boyog'ini saqlagan holda, biroz kuchaytirma darajada qo'llaniladi. Ma'noni kuchaytirish FB tarkbiga o'zgartirish kiritish yoki ikki (yo undan ortiq) frazeologizmni birlashtirib ifodalash hisobiga amalga oshiriladi.

Masalan ikki fazeologik birlik, (as) good as gold va (as) true as steel birliklarning birga qo'llanilishi fikrimiz dalili bo'la oladi:

"He was but a poor man himself," said Peggotty, "but **as good as gold and as true as steel**" (Ch. Dickens, "Pickwick Papers". Ch XXI, p.376)

3. Birinchi darajali okkazional ifodalanish. FB larning bunday tipli ifodalanish bir necha stilistik o'zgarishlar (komponentlar o'zgartirilishi, so'z qo'shish, tushirilib qoldirish, ellipsis) asosida amalga oshiriladi. Bu usul bilan nafaqat ekspressivlikni oshirish, balki FB ni umuman boshqa stilistik ma'noda qo'llash ham mumkin:

"One manages to earn one's **bread and butter**... and a little piece of cake" (Ch. Kingsley,"The Water- Babies", ch. III, p.68)

Berilgan misoldagi "bread and butter" birligiga qo'shilagan "a little piece of cake" so'z birikmasi gapga yumoristik bo'yoq yuklagan.

Ba'zida FB tarkibidagi komponentlarini antonimik so'zlar bilan almashtirilishi kuchli ijobiy hamda salbiy emotsional holatlarni ifodalash uchun ham ishlatiladi. Masalan, "hate smb.'s guts-biron kimni o 'lgudek yomon ko 'rmoq frazemasidagi "hate" antonimik juftligi "love "bilan almashtirilishi ham mumkin:

"**I hate the ground she walks on**, and she hates me!" (Gardener E.S. Some women won't wait, ch.XV, p.496).

4. Ikkinchi darajali okkazional ifodalanish. FB larning bunday ifodalanashi murakkab tarkibli stilistik o'zgarishlar yoxud konvergensiyaning taqqozo etadi. Murakkab tarkibli stilistik usullardan foydalanilganda konvergensiya bilan farqli ravishda yetakchi so'z ajratiladi. Masalan, "hell is paved with good intentions" birligi J. Lindsay asarida boshqacha ifodalanган. Ushbu iboradagi ta'sirchanlik "with good intention" birikmasini "resolution" so'zi bilan keyingi gapda esa "resolution" so'zining "them" olmoshi bilan almashtirilishi asosida oshirilgan.

"Resolutions are all very well" said Phyl, with a touch of primness. **"Hell's paved with them"** (J. Lindsay).

Shuningdek bir necha usullarning bir matnda qo'llanilishi ham FB ta'sirchanligini oshirish unga qo'shimcha emotsional bo'yoyuklash imkonini beradi. Masalan keyingi misolda so'z qo'shish, inversiya va deformatsiyani kuzatishimiz mumkin:

Frank: If I live to be a hundred I shall never forget that little glimpse you've just given me of yourself.

Millie: Frank, you're **making a frightening mountain out of an absurd little molehill.**

Frank: Of course but the mountain I'm making in my imagination is so frightening that I'd rather try to forget both it and the repulsive little molehill that gave it birth (M. Twain "Life on the Mississippi" ch.XXII, p.260)

Bu yerda "make a mountain out of a molehill" iborasi tarkibiga frightening, absurd, little sifatлари qo'shilmoqda va matnda yumoristik holatni ochishga yordam bermoqda.

Shunday qilib, iboralarda kommunikativlik darajasi turli xil bo'lishi mumkin, kommunikativlik turiga ko'ra 3 xil iboraviy birliklar mavjudligi taklif etilgan.

1) Tarkibidagi bironta ham so'zning asl ma'nosi saqlanmagan iboralar (phraseological fusions). Bu turdagi iboralarda so'z ma'nolarining bir biriga bog'liqligi eng yuqori darajani kasb etadi. Masalan: *to kick the bucket = to die – jon taslim etmoq, bakers dozen - baxtsiz raqam, spick and span, fishy story - saf-sata.*

2) To'liq ko'chma ma'noli so'zlar birikmasi (phraseological units), bunday turdagi birikmalarda metafora juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu turdagi iboralarda

tarkibdagi bironta so'z o'z ma'nosini qisman bo'lsada saqlab qolgan, yoki so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan bo'ladi. Masalan: *to show one's teeth =to smile*, - *iljaymoq, tabassum qilmoq, to know the way the wind blows – shamolning qaysi tarafdin esayotganligini bilmoq, gapning qaysi tarafga qarab borayotganligini bilmoq, to skate on thin ice =to be in danger – xavf ostida bo'lmoq.*

3) Iboraviy birikma (Phraseological combinations) – tarkibidagi bir so'zning o'z lug'aviy ma'nosini saqlab qolgan, ikkinchisi esa ko'chma ma'noda ishlatiladigan birikmalar. Masalan: *to make money*, - *pul ishlab topmoq, to take exams – imtiho topshirmoq.*

Tarjima jarayonida iboralarning muvofiqligi asosiy turlari quyidagilar:

1. To'liq mos kelishi. 2. Qisman mos kelishi. 3. Umuman mos kelmasligi.

1.To'liq muvofiqlik iboraning ham shaklan ham mazmunan mos kelishi kamdan kam hollarda uchraydi: Masalan: *To bring oil to fire*. Alangaga yog' quymoq. *To lose one's head*. Gangib qolmoq. *First think then speak*. Avval o'yla keyin so'yla.

2.Qisman muvofiqlik, bu turdagi iboralar o'z ichiga leksik, grammatik va leksiko-grammatik farqlanishini ammo ma'no va uslubiyatning o'xshashligini o'z ichiga oladi, ya'ni ular shaklan bir xil ammo leksik tuzilishi morfologik tartibi va uslubiy yasalishi umuman boshqa bo'lishi mumkin. Masalan: *To get out of bed on the wrong foot*. Chap yoni bilan turmoq. *To dance to smbd's pipe*. Birovning nog'orasiga o'ynamoq. Grammatik jihatdan qisman moslik: Masalan: *To fish in troubled waters*. Loyqa suvda baliq tutmoq. *To keep one's head*. O'zini yo'qotmaslik. sintaktik jihatdan farqlanishi. Masalan: *Armed to teeth*. Tish-tirnog'igacha qurollangan. *All is not gold that glitters*. Barcha yaltiragan narsaoltin emas.

3.Umuman mos kelmaslik. Ingliz tilidagi ko'pgina frazeologik birliklarning o'zbek va rus tillardagi ekvivalentlari mavjud emas. Muvofiq bo'lmagan frazeologik birliklarni quyidagi yo'llar orqali tarjima qilish mumkin: a) So'zma-so'z tarjima qilish: *To call things by their true names*. Har narsani o'z nomi bilan atamoq. *Cold war*-sovuq urush. b) Analog (o'xshashlikka asoslangan) tarjima: *The apple of my eyes*.

Ko'zimning nuri. c) Tasviriy tarjima: To enter the House -Parlament a'zosi bo'lmoq.
To cross the floor of the House-bir partiyadan boshqa partiyaga o'tmoq.

Idiomalar va maqollar tarjimasida uch tamoyil hukm suradi:

1. Asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish;

2. Asar o'girilayotgan tildan monand, muqobil variant topib qo'yish;

3. Frazeologizmlarni aynan, so'zma – so'z tarjima qilish.

Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiiy ma'nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo'ladi. Maqol va matallarni tarjima qilishda imkon qadar yuqori natijalarga erishish maqsadida quyidagi yo'llar (usullar)ni qo'llash mumkin:

a) Ekvivalent. Ingliz tilidagi iboraga ma'no jihatdan ham, shakl jihatdan ham aynan mos tushadigan tarjima: Art is long, life is short. San'at abadiy – umr qisqa. A good name is better than richness. Yaxshi nom boylikdan afzal. First think, then speak. Avval o'yla, keyin so'yla.

b) Analog(o'xshashlik). Ma'no jihatidan ingliz tilidagi variantiga mos, lekin shakl asosi bo'yicha undan butunlay yoki qisman farq qiluvchi tarjima usuli: Business before pleasure. Mehnat, mehnatning tagi rohat. What is done cannot be undone. O'tgan ishga salovat. Never put off till to-morrow what you can do today. Bugungi ishni ertaga qo'yma.

c) Tasvirlash yoki tasviriy tarjima. Ingliz tilidagi iborani erkin so'z birikmasi orqali berish. Bu tarjima metodi o'zbek tilidaxuddi shu iboraga mos ekvivalenti topilmagan hollarda qo'llash mumkin. An unfortunate man would be drowned in a tea-cup. Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi. *A birds in the hand is worth two in the bush. Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi.*

Iboralarni tarjima qilish bu oson ish emas, chunki u bir nechta quyidagi tamoyillarga asoslanadi: so'zlarning turli xil birikishi, so'zlarning omonimligi, sinonimligi, iboralarning ko'pma'noligi va tarjimonni chalkashtiradigan matniy ma'nolar. Bundan tashqari ko'pchilik iboralarda milliy xarakterga ega uslubiy

bo'yoqdorlik mavjud bo'ladi. Tarjima jarayonida asliyatdagi iboralarning o'rniga mos lingvistik birlik tanlash ikkita o'ziga xos lingvistik tamoyilga asoslanadi. Bu tamoyillar o'xshashlik va noo'xshashlik alomatlarini aniqlab beradi. Iboralar shakl va mazmuniga ko'ra mos kelishi yoki umuman mos kelmaydigan unsurlardan tashkil topishi mumkin. Ushbularni hisobga olib iboralarni tarjima qilishda va ularning kommunikativlik vazifasini saqlashda asosan quyidagi uchta muvofiqlik turiga e'tibor berish lozim. 1) To'liq mos keladiga iboralar: *To lose one's head* – gangib qolmoq, *black frost* – qora sovuq; 2) Qisman mos keladiga iboralar: *To lose one's temper* – sabri tugamoq, *g'azablanmoq*; *to aggre like cats and dogs* – it mushukdek yashamoq; 3) Muvofiqlikning yo'qligi: *to pull somebody's leg* – mazax qilmoq; *to beat about the bush* – gapni aylantirmoq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1963. – 208 с.
2. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – М.: Просвещение, 1990. – 300 с.
3. Cowie A.P. (Ed.). Phraseology: Theory, Analysis and Applications. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 272 p.
4. Fernando C. Idioms and Idiomaticity. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 265 p.
5. Galsworthy J. Indian Summer of a Forsyte. – London: Heinemann, 1928.
6. Gardner E.S. Some Women Won't Wait. – New York: William Morrow & Company, 1948.
7. Гаврин С.Г. Фразеология современного русского языка. – М.: Просвещение, 1974. – 184 с.
8. Dickens Ch. The Pickwick Papers. – London: Chapman & Hall, 1837.
9. Kingsley Ch. The Water-Babies. – London: Macmillan, 1863.
10. Kunin A.V. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – 381 с.
11. Lindsay J. Selected Works. – London: Constable, 1965.
12. Maugham W.S. The Razor's Edge. – London: William Heinemann, 1944.

13. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 357 p.
14. Nachischione A. Phraseological Units in Discourse: Towards Applied Stylistics. – Riga: Latvian Academy of Culture, 2001. – 283 p.
15. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 379 b.
16. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Akademnashr, 2008. – 300 b.
17. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
18. Twain M. Life on the Mississippi. – New York: Harper & Brothers, 1883.
19. Vinogradov V.V. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 118–139.
20. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002. – 164 b.